

Huquqbuzarliklarni Bevosita Amalga Oshiruvchi Davlat Organlarining Huquqbuzarlik Sodir Etishga Moyil Shaxslar Bilan Ishlash Vazifa Va Vakolatlari

Aslanov Bobur Tuxtayevich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Kriminologiya kafedrasida o‘qituvchisi, yu.f.f.d., (phd),
mayor

Ravshanov Dostonjon Ravshan og‘li

Samarqand viloyati IIB TQX Qidiruv ishini tashkil etish bo‘limi katta tezkor vakili, mayor

Amaliyot va nazariyani uyg‘unligini ta’minlash va sohaviy xizmat organlari xodimlari o‘rtasida o‘z vakolati doirasiga tegishli bo‘lgan huquqbuzarliklarni ko‘rib chiqish va huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarning profilaktik hisobini yuritishda uchrayotgan muommalarni ayrim davlat organlari misolida yoritib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunida davlat organlari tomonidan huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarga nisbatan “profilaktika hisob yoki ruyhat xisobi” yuritilishi belgilab quyilgan. Mazkur qonunning 10-moddasida “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlari – ushbu qonunning 35-moddasida nazarda tutilgan (MJtK 28-ta moddasi buyicha) profilaktik hisob yuritish quyidagi huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslarga nisbatan belgilab quyilgan. Jumladan:

a) ilgari sudlanganlarga ular jinoiy jazoni o‘taganidan so‘ng, o‘ziga nisbatan ma‘muriy nazorat o‘rnatilgan shaxslar bundan mustasno;

b) o‘ziga nisbatan sudning jazo tayinlanmagan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan shaxslarga;

v) O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining

84-moddasiga muvofiq aybdorlik to‘g‘risidagi masala hal qilinmasdan turib o‘ziga nisbatan jinoyat ishi tugatilgan yoxud rehabilitatsiya qilmaydigan asoslar bo‘yicha jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish to‘g‘risidagi qaror chiqarilgan shaxslarga;

s) o‘ziga nisbatan qamoqqa olish bilan bog‘liq bo‘lmagan ehtiyot chorasi tanlangan jinoyat sodir etishda ayblanuvchilarga;

d) O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 40, 41, 45, 47, 52, 56, 58, 61, 106, 131, 165¹, 183, 184, 184¹, 184², 184³, 187, 188, 188¹, 189, 189¹, 190, 191, 201, 202, 202¹, 240, 241-moddalarida nazarda tutilgan ma‘muriy huquqbuzarliklarni sodir etganlarga;

➤ ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytganlarga¹ nisbatan profilaktika ishi yuritilishi aniq belgilab quyilgan.

Ta’kidlash joizki, ichki ishlar organlari profilaktik hisobida turuvchi shaxslarning axloqan tuzalishi va qayta huquqbuzarlik sodir etishlarining oldini olish maqsadida ular bilan olib boriladigan

¹ O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi (14.05.2014) Qonun. [Elektron manbaga murojaat vaqti: 06.06.2025] URL: <https://lex.uz/docs/2387357>.

profilaktika ishlarini takomillashtirib² borish profilaktika inspektorlari vakolati doirasida belgilab quyilganligini ko'rish mumkin.

Yuqoridagi qonunda huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi sohaviy xizmatlar vakolatiga ta'luqli bo'lgan huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarga nisbatan profilaktika hosob yoki ruyxat xisobi yuritib borish quyidagi davlat organlariga yuklatilganligi belgilab quyilgan:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xavfsizligi to'g'risidagi qonuning 10-moddasida – "huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi, ularga imkon yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish Davlat xavfsizlik xizmatining jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir faoliyatidagi ustuvorliklardir"³ deb ko'rsatilib o'tilganligi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunda ushbu xizmatning asosiy vazifasi sifatida – "xalqaro jinoiy tashkilotlar faoliyati to'g'risidagi axborotni to'plash va tahlil qilishni, milliy xavfsizlikka ulardan kelib chiquvchi tahdid darajasini baholashni amalga oshiradi, tegishli organlar va muassasalarga zarur axborotni taqdim etishi bilan birga "tinchlik va xavfsizlikka qarshi huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarning hisobini yuritadi (12-m)" – deb aniq belgilab quyilgan;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati – "qo'riqlanuvchi shaxslarning manfaatlari, xavfsizligi va daxlsizligiga qarshi huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarning ruyxat hisobini yuritadi" (12¹-m);
3. Davlat bojxona xizmati organlari – "bojxona sohasida huquqbuzarliklar sodir etgan jismoniy va yuridik shaxslarning ruyxat hisobini yuritadi (14-m)",
4. Davlat soliq xizmati organlari – "soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etgan jismoniy va yuridik shaxslarning ruyxat hisobini yuritadi (15-m)";
5. Davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari – "alkogolizmga, giyohvandlikka, zaharvandlikka, ruhiy kasalliklarga, OIV infeksiyasiga, tanosil kasalliklariga va atrofdagilar uchun xavf soluvchi boshqa kasalliklarga chalingan shaxslarni aniqlaydi, ularni hisobga olishlari va profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirish (18-m)"⁴ kabi vazifalar ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasining Davlat xavfsizligi xizmati xodimlari quyidagi ayrim huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslarning hisob ruyxati yuritilishi ko'rsatilib o'tilgan:

- a) O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining, suverenitetining, hududiy yaxlitligining va boshqa davlat manfaatlarining tashqi hamda ichki tahdidlarni yuzaga keltirishga moyil shaxslarni,
- b) chet davlatlarning, xalqaro va xorijiy tashkilotlarning, guruhlarning hamda ayrim shaxslarning davlat manfaatlariga va xavfsizligiga zarar yetkazayotgan yoki zarar yetkazishga qodir bo'lgan razvedka, diversiya, qo'poruvchilik va boshqa buzg'unchilik faoliyati bilan shug'ullanishga moyil shaxslarni (4-m)
- v) davlat manfaatlarini va xavfsizligiga tahdid soluvchi milliy, etnik va diniy adovatni targ'ib etishga qaratilgan buzg'unchilik faoliyatini olib borishga moyil shaxslarni,
- g) davlat organlari va boshqa tashkilotlarda davlat manfaatlariga hamda xavfsizligiga tahdid soluvchi korrupsiya holatlarni sodir etishga moyil shaxslarni,

² O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2017 yil 12 iyuldagi 151-son buyrug'iga 1-ILOVA "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risi"dagi Nizom. T-2017. Bet-5

³ O'zbekiston Respublikasi "Davlat xavfsizligi xizmati to'g'risida"gi O'RQ-471-son Qonun. (10-modda) [Elektron manbaga murojaat vaqti: 06.06.2025] URL: //https://lex.uz/docs/3610935#3642760.

⁴ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.05.2014-yildagi O'RQ-371-son. [Elektron manbaga murojaat vaqti: 06.08.2025] URL: //https://lex.uz/docs/2387357.

s) telekommunikatsiyalar va transport sohasidagi va favqulodda vaziyatlarga shart-sharoit yaratib beruvchi huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni;

d) davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid solishga moyil shaxslarning (5-m) xisob ruyhatini yuritishi⁵ ko'rsatib o'tilgan bo'lsa-da, shuning o'zigina xech qanday profilaktika samara va natija bermayapti.

Nazarimizda, og'ir va o'ta og'ir turdagi (terrorizm va ekstremizm yoki O'zbekiston Respublikasi Davlat chegaralaridan o'tishda o'rnatilgan tartibni buzishga) jinoyatlar sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar⁶ bilan profilaktik chora-tadbirlarni ta'minlash borasida tegishliligi bo'yicha sohaviy xizmatlarda yuqori ish tajribasiga ega bo'lgan va shu sohada ko'p yillar faoliyat olib borgan mutaxassis xodimlar tomonidan amalga oshirish lozim.

Tadqiqotlar jarayonida o'tkazilgan anketa so'rovnomasida, "Sizningcha huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi sub'ektlarning qaysi birlari huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarga nisbatan profilaktika hisobini yuritishi lozim deb uylaysiz"? deb berilgan savolga respondentlarning 75 % Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarini, 13 % – barcha davlat organlari vakolati doirasida va kasbiy mutaxassisligi buyicha profilaktika ishi yuritishni, 3 % – Davlat xavfsizligi xizmati xodimlarini, 2 % – Davlat bojxona xizmati organlari, 2 % – Prokuratura organlari xodimlarini, 2 % – O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlarining, 2 % – Davlat sog'liqni saqlash vazirligi deb javob berishgan.

Ta'kidlash joizki, barcha davlat organ vakillari vakolatlari va vazifalarining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, o'ziga ta'luqli bo'lgan huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarga nisbatan profilaktika hisob va boshqa tegishli yig'ma jildlarni yuritishi lozim.

Shuningdek, ichki ishlar organlarining sohaviy xizmat sub'ektlari tomonidan huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarga nisbatan qo'llanilayotgan chora-tadbirlarni boshqa davlat organlari ham tegishliligi bo'yicha ta'minlaydi.

Masalan quyidagi yo'nalishlarda: "Huquqbuzarliklar sodir etish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar" bilan tezkor-qidiruv tadbirlarni ta'minlashda ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv xizmatlarining vazifalari muhim ahamiyatga ega. Xususan, tezkor-qidiruv xizmati tezkor vakillari tomonidan konspiratsiya prinsipiga rioya etgan holda: a) "tezkor-qidiruv xususiyatiga ega axborotni olish, rasmiylashtirish, saqlash va undan foydalanish; b) tezkor xizmat xususiyatiga ega hujjatlar bilan ishlash qoidalarining alohida tartibi belgilangan holda amalga oshiriladi"⁷.

Giyohvandlik va psixotrop moddalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish bo'linma tezkor vakillari – "giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalari va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomala qilinishi va giyohvandlikka qarshi kurashish"⁸, shuningdek mazkur jinoyatlarni sodir etgan yoki sodir etish xavfi yuqori bo'lgan shaxslarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining tegishli buyruqlariga asosan alohida reja va ko'rsatma asosida yilda ikki mavsumda: *birinchi davri*, mart-iyul oylarida; *ikkinchi davri*, sentyabr-noyabr oylarida Respublika bo'yicha dorixonalar, ovloq joylar, tog'li zonalar, ilgari sudlangan shaxslarning yashash va ish joylarida "Qoradori" maxsus-tezkor tadbirlarini olib borishadi.

⁵ Davlat xavfsizligi xizmati to'g'risida"gi O'RQ-471-son Qonun. (10-modda) [Elektron manbaga murojaat vaqti: 05.06.2025] //URL: //https://lex.uz/docs/3610935#3642760.

⁶O'zbekiston Respublikasining "Davlat chegarasi to'g'risi"dagi 820-I-son Qonun. [Elektron manbaga murojaat vaqti: 14.06.2025] //URL:https://nrm.uz/contentf?

⁷ O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi (25.12.2012-y) Qonun. [Murojaat vaqti: 15.05.2024]. //URL:https://lex.uz/mobileact/2107763.

⁸ *Abdullayev X.G', Payziyev A.M.* Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar va kuchli ta'sir qiluvchi dorilarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishning muammolari va yechimlari. Science and Innovation international scientific journal volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2|issn:2181-3337. //URL: // file: /// C: / Users / User / Downloads/giyohvandlikvositalariyokipsihotropmoddalarvakuchlita'sir – iluvchi -dorilarning-no-onuniyaylanishiniga-arshi-kurashishning-muammolari-va-echimlari.pdf.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2025-yilning fevral oyining o'zida o'tkazilgan 640 ta maxsus "Qoradori" tezkor tadbirlar doirasida 1401 nafar giyohvandlik vositalarini tarqatish, saqlash, iste'mol qilishda gumon qilingan shaxslar bilan tezkor va profilaktik ogohlantiruv tadbirlari amalga oshirilgan bo'lib, jami 28 kilogramm 857 gramm giyohvandlik vositalari (geroin, opiy, gashish, sintetik turdagi giyohvandlik vositalari) hamda 9 421 dona kuchli ta'sir qiluvchi va psixotrop dori vositalari aniqlangan⁹.

Terrorizmga qarshi kurashish bo'linma tezkor vakillari – terrorchilik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etayotgan, terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoxud O'zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni amalga oshirayotgan¹⁰ va oldindan til biriktirib ekstremistik faoliyatni amalga oshirayotgan yoki uni sodir etishga suiqasd qilayotgan, yoxud ekstremistik faoliyatni amalga oshirishda ishtirok etayotgan¹¹ hamda odam savdosi bilan shug'ullanuvchi¹² huquqbuzarliklar sodir etish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar toifalariga nisbatan "Antiterror", "Arsenal" va boshqa turdagi maxsus-tezkor tadbirlarni ta'minlaydi.

Jinoyat qidiruv bo'linma tezkor vakillari – o'ziga biriktirilgan joylarda "jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga barham berish va ularni fosh etish, shuningdek jinoyatlarni tayyorlash va sodir etishga daxldor shaxslarni aniqlash hamda topish, surishtiruv, tergov organlaridan va suddan yashirib yurgan, jinoiy jazodan bo'yin tovlayotgan, bedarak yo'qolgan va qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslarni qidirishni amalga oshirish, shuningdek tanib olinmagan murdalarning shaxsini aniqlash, hamda shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdid solayotgan shaxslar, hodisalar, harakatlar (harakatsizlik) bo'yicha axborot to'plash"¹³ va ularga nisbatan huquqiy ta'sir choralarini ko'rishdan iboratdir. Shuningdek, ularning asosiy vazifalari "jinoyat alomatlariga ega ijtimoiy xavfli qilmishlarni barvaqt aniqlash bo'yicha samarali tezkor-qidiruv tadbiri sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda"¹⁴.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, jinoyat qidiruv xizmati subyektlari tomonidan huquqbuzarliklar sodir etish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar toifalariga nisbatan tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda ishlash natijasida 2024-yilda sodir etilgan umumiy jinoyatlarning 92,4 foizi fosh etilgan. Qidiruvdagi shaxslarni 8 736 nafari ushlangan va bedarak yo'qolganlarning 567 nafari topilgan¹⁵. 2025-yilning fevral oyida esa 53 nafar qidiruvdagi shaxslar qo'lga olingan¹⁶. Bu borada "insonning huquq va erkinliklarini hurmat qilishning asosiy kafolatlaridan yana biri tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirayotganda tezkor-qidiruv subyektlari tomonidan fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etilishini ta'minlash"¹⁷ hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joyizki, inson huquq va erkinliklarining mazkur kafolati muhimligining ahamiyati shundan iboratki, shaxsni aybdorligiga oid har qanday shubhalarga tayanib, ayblash uchun yetarli bo'lmagan dalillar asosida shaxsni javobgarlikka tortish mumkin emas. Bordi-yu, tergovda ayb e'lon qilinsa ham, bunday vaziyatda sudda aybini tasdiqlovchi

⁹ O'zbekiston DXX hamda IIV tuzilmalari tungi klublar va boshqa jamoat joylarida reyd o'tkazdi. Murojaat vaqti: 15.02.2025]. //URL:<https://daryo.uz/rxtRvNzR>

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi 167-II-son qonuni. [Murojaat vaqti: 13.04.2025]. //URL:<https://lex.uz/docs/29526>.

¹¹ O'zbekiston Respublikasining "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-489-son qonuni [Murojaat vaqti: 01.05.2024]. //URL:<https://lex.uz/docs/3841957>.

¹² O'zbekiston Respublikasining "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 633-son qonuni [Murojaat vaqti: 04.05.2025]. //URL: <https://lex.uz/docs/4953314>.

¹³ O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi (2012-y) qonuni. [Murojaat vaqti:13.04.2025]. //URL:<https://lex.uz/mobileact/2107763>.

¹⁴ *Gafurov F.R.* Tezkor tadqiqot - jinoyatchilikka qarshi kurashishning yangi usuli sifatida. Fundamental tadqiqotlar jurnali. b 189. [Murojaat vaqt:13.04.2024].//URL:<https://imfaktor.com/index.php/jofs/article/view/461/791>.

¹⁵2025-yil fevralda Senatda o'tgan Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi majlisida Ichki ishlar vazirligi mas'ullar axboroti. [Murojaat vaqti:28.02.2025].//URL:<https://kun.uz/62186213>.

¹⁶ O'zbekiston DXX hamda IIV tuzilmalari tungi klublar va boshqa jamoat joylarida reyd o'tkazdi. Murojaat vaqti: 15.02.2025]. //URL:<https://daryo.uz/rxtRvNzR>

¹⁷ *Abdullajonov N.B.* Tezkor qidiruv faoliyatida inson huquqlarining himoyasining kafolatlari. [Murojaat vaqti: 13.04.2024]. //URL:<https://zenodo.org/records/10651211>.

dalillarning yetarli emasligi tufayli unga nisbatan oqlov hukmi chiqariladi. Ya'ni, "isbotlanmagan ayb-isbotlangan aybsizlikka teng" degan xalqaro standart amal qiladi¹⁸.

¹⁸*Samarxodjayev B.B., Artikov D.R. O'zbekistonda sud-huquq islohotlarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari // Jinoyatchilikka qarshi kurashning jinoiy-huquqiy va kriminologik muammolari. T., 2023. B.60. [Murojaat vaqti:22.04.2024].//URL:<https://mgjxu.uz/uploads/pages/ilmiy%20faoliyat/To'plam/2023%20KM%201to'plam%20Jinoyatchilikka%20qarshi%20kurashning....pdf>.*